



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN
(1879-1955)

2022
YANVAR
№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz



www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
25-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-25**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-25**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Davlatova Barno Ismoilovna	
GEOGRAFIK O'YIN TURLARI VA ULARNI DARS JARAYONIDA QO'LLASH.....	7
2. Бекчанова Санобар Эгамовна, Қурбонова Гўзал Шамуродовна	
ДАРС ЎТИШ ЖАРАЁНИДА ЎҚИТИШ ИНТЕРФАОЛ МАШФУЛОТ ТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	9



ГЕОГРАФИЯ

GEOGRAFIK O'YIN TURLARI VA ULARNI DARS JARAYONIDA QO'LLASH

Davlatova Barno Ismoilovna

Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani

Hazorasp 2-son kasb hunar

maktabi geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun ta'limini o'rghanishda asosiy rol o'ynaydigan didaktik o'yin turlari bilan tanishamiz va bu o'yinlarni geografiya darslarida qo'llash usullarini ko'rib o'tamiz.

Kalit so'zlar: geografiya, o'yin, dars, metod, usul, shahar, ball, topshiriq, savol.

Bizga ma'lumki, geografiya dunyodagi eng qadimgi va qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. «Geografiya» deb nomlangan eng dastlabki kitob bundan ikki ming yil ilgari yunon olimi Eratosfen tomonidan yozilgan.

Darhaqiqat, geografiyaga qiziqmagan, o'zining kundalik hayotiy faoliyatida geografiyaga duch kelmagan insonni uchratish qiyin. Bugungi kun geografiyasi yangiliklarni o'quvchilarga yetkazish uchun o'qituvchilardan o'z ustida muntazam ishslashni talab qiladi.

Geografiya darslarini hayotga bog'lab, qiziqarli qilib tashkil etilsa ana shundagina dars mavzulari har bir saboq oluvchilar ongiga chuqurroq singadi. Bugungi kun talabi darslarni Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalaniib, noan'anaviy interfaol usullar, didaktik o'yinlar yordamida tashkil etishdir. Biz quyida ana shunday geografik o'yin turlari bilan tanishamiz.

Geografik o'yinlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, ushu geografik o'yinlar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishida, o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan havasini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

“Kim ko'p biladi” o'yini. Bu o'yinni geografiyaning xohlagan mavzusini o'rghanishda qo'llash mumkin.

O'yin texnologiyasi: Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar, o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Boshqaruvchi qo'llarni sanab, har biriga 1 balldan qo'yadi. Har bir savolga bir o'quvchidan javob so'raladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa o'sha guruhdan bir ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko'p ball to'plasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

«Uchinchisi ortiqcha» o'yini. Mazkur interfaol o'yinni fanlardan xohlagan mavzuni o'rghanish jarayonida qo'llash mumkin, bunda bir-biriga mos keladigan 2 ta to'g'ri va bitta noto'g'ri savol-topshiriq jadvali asosida o'quvchi e'tiboriga havola etiladi. Buni biz geografik topshiriq misolida keltiramiz: *Daryolar; Dengizlar; Ko'llar*.

1. Nil, Kasbiy, Baykal. 2. Amazonka, Oxota, Viktoriya. 3. Kongo, Sariq, Boltiq bo'yi. Shular ichida qaysi biri ortiqchaligini kim tez topsa, o'sha g'alaba qiladi.

«Kartadan topish» o'yini. Har bir guruhda olib borish mumkin darsning mazmuniga qarab o'yin geografik atlasning sahifalaridagi turli ob'ektlardan bo'ladi. O'yin uslubi: O'qituvchi geografik ob'ektni aytadi. O'quvchilar topadi va izohlab beradi. O'quvchilar bu o'yinni bir necha bor o'ynaganlaridan so'ng tez topadigan bo'ladi. O'quvchilar murakkablashtirib borib, shu topiladigan nomning geografik koordinatalarini aniqlash topshiriladi. Buning uchun shahar va qo'riqxonalarni tanlagan ma'qul. O'quvchilar topilgan joyning koordinatalarini daftarga yozib oladilar.

«Geoekologik lug'at» o'yini. Bu o'yin sharti: o'yinni ikki o'quvchi bajaradi hamda bu o'yinga bir kishi hakamlik qiladi va yozib boradi. Bunda o'quvchilar navbatma-navbat bilan boshlanadigan geografik atama va nomlarni aytishadi. O'yinning uslubi: masalan, «A» harfidan o'yin boshlansa, ob'ekt, aspekt, antropogen kabilar. O'yin borgan sari qizishib boradi. Nom topilmagan holda yoki



geografiyaga tegishli bo’limgan atama yoki nomlar aytgan o’quvchi yengilgan hisoblanadi.

«*Qizil kitobni bilasizmi?*» o’yini. O’yining mazmuni: o’yin qatnashchilariga savollar Qizil kitob bo’yicha beriladi. Qizil kitobga kiritilgan hayvonlarning va o’simliklarning nomi, sinfi, turkumi, oilasi to’g’risida savollar beriladi. Shu tariqa o’yin davom etadi. Kim ko’p savolga javob bersa o’sha o’quvchi g’olib bo’ladi.. «*Kim ko’p yozadi?*» o’yini. O’yin tartibi: o’quvchilar oldida faqat qog’oz va qalam bo’lishi kerak. O’yinni «O’zbekiston daryolari», «Ko’llar», «Suv omborlari» mavzulari bo’yicha o’tkazish, ayniqsa, yaxshi natija beradi. Bu o’yin uchun ma’lum bir vaqt belgilanadi. Masalan, «O’zbekiston daryolari» e’lon qilindi, deylik, o’quvchilar esa belgilangan vaqt ichida o’zлari bilan daryo nomlarini yozib chiqishlari kerak. Yozilgan har bir daryo uchun 1 ochko beriladi. O’yinda eng ko’p ochko to’plagan o’quvchi g’olib hisoblanadi.

«*O’zbekiston shaharlarini raqamlar yordamida o’rganish*» o’yini. O’quvchilar kuchi bilan O’zbekistonning bir necha kontur kartalari tayyorlanadi va bu kartalarda shaharlar o’rniga raqamlar qo’yib chiqiladi. Butun guruh o’quvchilari bir vaqtida o’yinda ishtirok etishlari mumkin. O’yinni boshqaruvchi qo’lida kontur kartadagi raqamlar o’rnidagi shaharlarning ro’yxati bo’lishi kerak. O’quvchilar qo’lida esa diametri 1 sm kattalikdagi doirachalar bo’lishi lozim. Ular o’yin boshqaruvchi e’lon qilgan shaharni kontur kartadagi raqam ustiga qo’yib borishlari kerak. Masalan, agar o’qituvchi 5 deb e’lon qilgan bo’lsa, o’quvchi o’z doirasini Urganch shahrining ustiga qo’yishi kerak va hokazo. O’yinni boshqaruvchi o’yin natijalarini tekshirib, g’olib o’quvchini aniqlaydi. O’quvchining har bir to’g’ri javobiga 1 balldan berib borish mumkin.

Fanlarni o’qitish jarayonida interfaol metodlar, turli didaktik o’yinlardan foydalanish o’ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir didaktik o’yinni sinchiklab o’rganish va amalda qo’llash o’quvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O’quvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar didaktik o’yinlar orqali tahlil etilganda o’quvchilarning bilim, ko’nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Shuning uchun har bir darslarda turli xil o’yin turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining geografiya fani darsliklari.
2. www.geografiya.uz
3. www.ziyonet.uz



ДАРС ЎТИШ ЖАРАЁНИДА ЎҚИТИШ ИНТЕРФАОЛ МАШҒУЛОТ
ТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Бекчанова Санобар Эгамовна
Янгиариқ тумани 8- сон мактаби
география фани мутахассис ўқитувчisi
Курбонова Гўзал Шамуродовна
20-сон мактаби география фани
мутахассис ўқитувчи,

Аннотация: Педагогик мулокат ўрнатиш учун замонавий, инновацион технологиялардан фойдаланиш эҳтиёжи туғилди. Бу технологиялардан бири интерактив дарс усусларирид.

Калит Сўзлар: Қор бурон, асалари галаси, галеряни айланиш, академик мунозара.

Интерфаол усул дарсларни қизиқарли сермазмун, энг муҳими самарали қилиб ўтказишидир. Интерактив сўзи лотинча сўз бўлиб “интер” ўзаро, “ақт” мулокат, яқинлик деган маънони билдиради. Бунда талабаларнинг билими ортади, шахсияти ривожланади ва ўқув жараёнининг махсулдорлиги кўпаяди. Маълумки яхши ўзлаштириш учун шунчаки тинглаб, ёзib ўтириш етарли эмас, балки шу материал устида фаол ишлаш, ўйлаб кўриш мухокама қилиб чиқиши, ёрдамчи вазифаларни бажариши керак.

Хозирги пайтда биз педагогларнинг асосий вазифаларимиздан бири ўқувчидаги мустақил шуғулланиш малакасини ҳосил қилишидир. Интерактив усусларидан фойдаланилганда ўқувчиларнинг барча психик жараёнлари идрок онг, диққат, хотира, сезги, ақл, тасаввур, тафаккури ишга тушиб, муаммони ечиш учун излашга, қидиришга, фикрини ривожлантиришга йўналтирилади. Бунда материални ўзлаштиришга бўлган эҳтиёж, mail ортиб боради ва натижа ҳам самарали бўлади. Интерактив усуслар амалий машғулот вақтида ўтказиб, маъруза билимларини чуқурлаштириш, кенгайтириш, аниқлаштириш мусахкамлаш ва ривожлантириш учун мулжалланган.

Интерфаол усусларга қуйидагилар киради: Қор бўрон, асалари галаси, мия хужуми, можаро методи, думалоқ стол, галеряни айланиш, стол ўртасидаги ручка, муаммоларни ҳал қилиш методи, ўн босқичли интервью, академик мунозара. Интерфаол машғулотларининг афзалликлари: Қатнашчиларга ўзғоялари ва фикрлари билан кўпроқ ўртоқлашиши уларнинг бир биридан ўрганиши учун имкон беради. Кичик гурухларда қатнашчилар катта гурухда айтишлари мумкин бўлган фикрлардан бошқача фикрларини айтишлари мумкин. Диққат марказини педагогдан қатнашчиларга кўчиради. Қатнашчиларни ўз устларида кўпроқ масъулият олишга мажбур қиласди.

Можаро методи; Ахлоқий тарбия мавзуси бўйича муаммоли вазият кўринишидаги топшириқ берилади. Шу топшириқни таҳлил қилиб, тез қарор қабул қилиши зарур. Ёки психологиядан диққат мавзуси бўйича турли муаммоли вазиятлар берилиши мумкин. Бу метод ўқувчиларга тез фикирлашни ва фавқулодда вазиятларда ишлашни ўргатади.

Думалоқ стол методи: топшириқ ёзib кўйилган қофоз вараги давра бўйлаб ўтказилади. Хар бир ўқувчи ўзининг жавоб вариантини ёзib қўяди ва варагни бошқа ўқувчига узатади. Жавоблар тугагач, мухокама бўлади. Нотўғри жавоблар ўчирилади, тўғри жавоблар сонига қараб ўқувчилар баҳоланади.

Уч босқичли интервью: гурух Зга бўлинади: педагог уқувчи эксперт. Хар бир гурух шу ролларини эгаллайди. “Ўқитувчи” гурухи мавзу бўйича савол ва топшириклар бериши, “Уқувчи” гурухи жавоб бериши, “эксперт” гурухи уларни баҳолаши зарур. Эксперт уч бўлимга бўлиб баҳолайди: Нималар тўғри қилиди. Нималар нотўғри қилинди. Қандай қилиш керак эди. Бу метод ўқувчиларга сўраб сариштириш, педагогик мулокот обиб бориш, билим ва малакаларни текшириш ва баҳолашни ўргатади.

Ручка стол ўртасида: Гурухга топшириқ берилади. Ҳар бир ўқувчи ўз жавоб вариантини вараг қофозга ёзив, уни қўшнисига узатади, ўз ручкасини столнинг ўртасига суриб қўяди. Жавобни билмайдига ўқувчи қофозни кейингисига узатиб ручкасини ўзида олиб қолади. Жавоб вариантлари ёзилган қофоз ўқитувчига берилади ва биргаликда мухокама қилинади. Бу методда ўқитувчи машғулотга ким тайёр, ким тайёр эмаслигин кўриб туради. Масалан: Тарбия усусларини белгилаб беринг.



Галерейни айланиш методи: Кичик гурухга битта муаммо таклиф этилади. Ҳар бир гуруҳ 10 мин давомида ўз фикрларини ёзадида, жавоб ёзилган варакларни иккинчи гуруҳ билан алмаштиради. Кейинги гуруҳ олдинги гурухнинг жавобларнин баҳолаши ва жавоб тўлиқ бўлмаса, ўз жавоби билан тўлдириши керак.

Қор бўрон методи: Бунда икки гуруҳ ўқувчилари бир муаммо ёки вазиятни муҳокама қилиб энг кўп миқторда тўғри жавоблар олиш кўзда тутилади. Ҳар бир тўғри жавоб юмалоқланган қор куринишида ўша гурухга балл тариқасида ёзиб қўйилади. Энг кўп балл олган гуруҳ аъло баҳоланади. Критик вазиятни таҳлил қилиш: Бирор бир ташвишли муаммоли вазият муҳокама қилиниши кўзда тутилади. Бунда нимани бошқача қилиш керак эди. Нима учун бу хатога йул қўйилди. Хатони тақрорламаслик ёки тузатиш учун нималар қилиш лозим, деган масалалар кўриб чиқилади. Хулоса қилиб айтадиган бўлсак ҳар бир метод ўқувчини фаоллаштиришга йуналтирилган. Ҳар бир методдан унумли фойдаланилса дарслар самарали ва сермазмун бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Толипов У.Қ Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари Бухоро, 2008.
2. Мажитова Ш.Инновационнеке педагогические технологии. Т.,2006.
3. Ишмуҳаммадов Р.,Абдуқодиров А, Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар Т., истеъдод 2008.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 25-ҚИСМ

(25-қисм)

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000